



PRINCIPLES OF LAW ENFORCEMENT AGENCIES TO FIGHT CORRUPTION IN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

Muhammadjon Temurov

Master's student

Law Enforcement Academy of the Republic of Uzbekistan

Tashkent, Uzbekistan

E-mail: temurov4444@mail.ru

ABOUT ARTICLE

Key words: law enforcement agencies, principle, anti-corruption, legitimacy, priority of citizens' rights, freedoms and legitimate interests, openness and transparency, systemativeness; cooperation of state and civil society, priority of measures to prevent corruption, inevitability of liability.

Abstract: In this article, an analysis of the basic principles of anti-corruption activities of law enforcement agencies was carried out in the Republic of Uzbekistan, as a result of this analysis, proposals for improving legislative documents and author's definitions of each of these principles were developed, and specific aspects of these principles were covered.

Received: 31.03.25

Accepted: 02.04.25

Published: 04.04.25

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA HUQUQNI MUHOFAZA QILUVCHI ORGANLARNING KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISH TAMOYILLARI

Muhammadjon Temurov

magistratura tinglovchisi

O'zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasi

Toshkent, O'zbekiston

E-mail: temurov4444@mail.ru

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: huquqni muhofaza qiluvchi organlar, tamoyil, korrupsiyaga qarshi kurash, qonuniylik, fuqarolar huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarining ustuvorligi, ochiqlik va shaffoflik, tizimlilik; davlat va fuqarolik jamiyatining hamkorligi, korrupsiyaning oldini olishga doir chora-tadbirlar ustuvorligi, javobgarlikning muqarrarlari.

Annotatsiya: Mazkur maqolada O'zbekiston Respublikasida huquqni muhofaza qiluvchi organlarning korrupsiyaga qarshi kurashish faoliyatining asosiy tamoyillari tahlili amalga oshirilib, ushbu tahlil natijasida qonunchilik hujjatlarini takomillashtirish yuzasidan takliflar hamda ushbu tamoyillarning har biriga mualliflik ta'riflari ishlab chiqilgan, ushbu tamoyillarning o'ziga xos jihatlari yoritib o'tilgan.

ПРИНЦИПЫ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ПРАВООХРАНИТЕЛЬНЫХ ОРГАНОВ ПО БОРЬБЕ С КОРРУПЦИЕЙ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН

Мухаммаджон Темуров

студент магистратуры

Академия правоохранительных органов Республики Узбекистан

Ташкент, Узбекистан

E-mail: temurov4444@mail.ru

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: правоохранительные органы, принцип, противодействие коррупции, законность, приоритетность прав, свобод и законных интересов граждан, открытость и прозрачность, системность; взаимодействие государства и гражданского общества, приоритетность мер по предотвращению коррупции, неотвратимость ответственности.	Аннотация: В данной статье был проведен анализ основных принципов антикоррупционной деятельности правоохранительных органов Республики Узбекистан, в результате этого анализа были разработаны предложения по совершенствованию законодательных документов и авторские определения каждого из этих принципов, а также освещены конкретные аспекты этих принципов.
---	---

Kirish. Bizga ma'lumki, insoniyat oldida turgan eng jiddiy va birlamchi o'rinda hal qilinishi lozim bo'lgan muammolar iqlim hamda korrupsiya hisoblanadi. Xususan, butun dunyoda korrupsiyaga qarshi kurash sohasida tashkiliy-huquqiy islohotlarni amalga oshirish har bir davlatning oldida turgan eng muhim siyosat yo'nalishlaridan biridir. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2025-yil 5-martida Korrupsiyaga qarshi kurashish milliy kengashi yig'ilishida: "Hammamiz yagona kuch bo'lib harakat qilsak, albatta, katta ijobiy samaraga erishamiz. Shu bois mahalla faollari, nuroniylar, ziyolilar, yozuvchi va shoirlar, san'at va madaniyat xodimlari, tadbirkorlar, taniqli shaxslar, rahbarlar, deputat va senatorlar – umuman butun jamoatchilik birlashib, korrupsiyaga "jamiyat tanasidagi saraton" sifatida qarashi kerak", - deb ta'kidlagan edilar. [1] Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son Farmoni bilan tasdiqlangan "O'zbekiston-2030" strategiyasining IV "Qonun ustuvorligini ta'minlash, xalq xizmatidagi davlat boshqaruvini tashkil etish" yo'nalishida 46-maqсад, ya'ni, korrupsiyaviy omillarni bartaraf etish tizimining samaradorligini oshirish, jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish ishlarini jadal davom ettirish uchun "Transparency International" xalqaro tashkiloti tomonidan e'lon qilinadigan Korrupsiyani qabul qilish indeksida kamida 50 pog'onaga ko'tarilish samaradorlik ko'rsatkichlariga 2030-yilgacha erishish vazifasi qo'yilgan. [2] Bu esa o'z-o'zidan O'zbekiston Respublikasida huquqni muhofaza qiluvchi organlarning korrupsiyaga qarshi kurashish tamoyillarini tahlil qilish dolzarb masala ekanligini ko'rsatib beradi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi. O'zbekiston Respublikasida huquqni muhofaza qiluvchi organlarning korrupsiyaga qarshi kurashish tamoyillarini tahlil qilishga bog'liq masalalar

B.Axrorov, Sh.R.Jalolov, S.A.Boydedayev, A.Burxanov, T.U.Safarov, B.Ismoilov, T.Kenjaye, U.Aloyev, A.Atajanov, Y.Kolenko, S.Mamanov, Z.Qo‘chqarov, N.Salayev, B.Xidoyatov, G.Tulaganova, S.Niyozova, B.Aliyev, A.Muxtarov, T.Norov, F.Maxmudovlar tomonidan, MDH davlatlari miqyosida O.L.Chechko, A.S.Semenov, I.Imanov, R.Y.Jixoreva, Y.I.Gaynutdinova, Y.L.Belyayeva, M.A.Molchanovalar tomonidan, xorijiy mamlakatlarda esa Kevin E. Davis, Guillermo Jorge, Maira Rocha Machado (Janubiy Afrika Respublikasi), Haoran Xu (Xitoy), Yanti Siahaan, July Esther, Debora (Indoneziya), Ana Pavlovska Daneva, Konstantin Bitrakov (Makedoniya), Joseph Pozsgai-Alvarez (Yaponiya), Jin-Wook Choi (Koreya Respublikasi) tomonidan yetarlicha hamda atroflicha o‘rganilgan. Shu bilan birgalikda, ushbu maqolani tayyorlash hamda ilmiy jihatdan tahlil qilishda kuzatish va tahlil, formal-yuridik, normativ-hujjatlar tahlili, teoretik va nazariy tahlil, komparativ (solishtirma) tahlil, induksiya va deduksiya, tizimli yondashuv, interdisiplinar yondashuv kabi huquqshunoslik metodlaridan foydalanildi.

Muhokama va natijalar. Bizga ma’lumki, “tamoyil” va “prinsip” tushunchalari bilan bir ma’noni anglatadi. Tamoyil tushunchasidan huquqning ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi vosita sifatidagi mohiyatini ifodalab beradigan boshlang‘ich normativ asoslar, eng asosiy qarashlar, g‘oyalar va qoidalar hisoblanadigan huquq prinsiplari ajralib chiqadi. Xususan, Z.M.Islomovning fikriga ko‘ra, huquqning mazmuni, uning mohiyati va jamiyatdagi vazifasini ta’riflab beruvchi asosiy g‘oyalar – huquq prinsiplaridir. [3] X.T.Odilqoriyevning ta’kidlashicha, huquq prinsiplari, hech mubolag‘asiz, uning mohiyatini ifodalovchi asosiy jihatlardan birini, asl o‘zagini tashkil etadi. Ular butun huquqiy materiyani – g‘oyalar, normalar va munosabatlarni qamrab olib, jami huquqiy hayotga muayyan mantiq, mazmun, ma’no, sobitqadamlik, ichki mutanosiblik hamda uyg‘unlik baxsh etadi. Prinsiplar huquq shakllanishida yo‘nalish beruvchi mo‘ljal, mezon vazifasini o‘taydi. [4] Ya’ni, huquqiy prinsiplar – huquqning regulativ funksiyasini aniqlashtirib keladigan hamda yo‘naltirish funksiyasini bajaradigan g‘oya ko‘rinishida ifodalanadigan qonun-qoidalar yig‘indisidir.

Bizning fikrimizcha, huquqni muhofaza qiluvchi organlarning korrupsiyaga qarshi kurashish tamoyillarining quyidagi o‘ziga xos jihatlari mavjud:

- huquqni muhofaza qiluvchi organlarning korrupsiyaga qarshi kurashish tamoyillari qonun darajasida belgilab qo‘yilganligi. Xususan, O‘zbekiston Respublikasining 2017-yil 3-yanvardagi “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi O‘RQ-419-son Qonun 4-moddasiga binoan, 1) qonuniylik; 2) fuqarolar huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarining ustuvorligi; 3) ochiqlik va shaffoflik; 4) tizimlilik; 5) davlat va fuqarolik jamiyatining hamkorligi; 6) korrupsiyaning oldini olishga doir chora-tadbirlar ustuvorligi; 7) javobgarlikning muqarrarligi prinsiplari korrupsiyaga qarshi kurashishning asosiy prinsiplari sifatida ko‘rsatib o‘tilgan; [5]

- qonuniylik prinsipi huquqni muhofaza qiluvchi organlarning korrupsiyaga qarshi kurashish tamoyillari doirasiga kirishi. Ushbu prinsipning mazmun-mohiyati huquq subyekti tomonidan amalga oshiriladigan har qanday faoliyat qonun bilan tartibga solinishi hamda qonunga binoan amalga oshirilishini anglatadi. Xususan, Z.M.Islomovning fikriga ko'ra, davlat boshqaruvining barcha organlari o'z faoliyatlarini qonun asosida va qonunni bajarish asosiga qurishi kerak. [3] Huquqni muhofaza qiluvchi organlarning korrupsiyaga qarshi kurashish faoliyatida qonuniylik prinsipi – O'zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi, O'zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmati, O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamentining korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi vakolatlari qonun hujjati bilan belgilab qo'yilgan va korrupsiyaga qarshi kurashish faoliyatini faqat qonunga asoslangan holda amalga oshirishidir. Haqiqatdan ham, yuqorida nazarda tutilgan huquqni muhofaza qiluvchi organlarning korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi vakolatlari O'zbekiston Respublikasining 2017-yil 3-yanvardagi "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi O'RQ-419-son Qonun 7, 8¹-13-moddalarida belgilab qo'yilgan. [5] Lekin ushbu holatda bir muammo yuzaga keladi. Ya'ni, O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi organlari va O'zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi faoliyati qonun hamda qonunosti hujjatlari bilan tartibga solinadigan huquqni muhofaza qiluvchi organlar doirasiga kiradi. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi organlari faoliyati O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 13-apreldagi PQ-3666-son Qarori bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi to'g'risida"gi nizom bilan, O'zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi faoliyati O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 30-iyundagi "O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-6013-son Farmoni hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-iyundagi "O'zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi PQ-4761-son Qarori bilan ham tartibga solinadi. Demak, yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, shuningdek, ushbu organlar davlat boshqaruv organlari sirasiga kirganligi sababli O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi organlari va O'zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi faoliyatini tartibga soladigan maxsus qonun hujjatlarini ishlab chiqish maqsadga muvofiq. Ana shundagina, bizning fikrimizcha, huquqni muhofaza qiluvchi organlarning korrupsiyaga qarshi kurashish faoliyatida qonuniylik prinsipiga to'liq amal qilingan hisoblanadi;

- fuqarolar huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarining ustuvorligi huquqni muhofaza qiluvchi organlarning korrupsiyaga qarshi kurashish tamoyillari doirasiga kirishi.

Ushbu prinsipning mazmun-mohiyati qonunchilik bilan mustahkamlab qo'yilgan iqtisodiy va ijtimoiy tuzum odamlarni ezish, shaxsga nisbatan shafqatsiz munosabatda bo'lishlariga mutlaqo yo'l qo'ymasligi, davlat kafolatlari tizimi fuqarolarni noqonuniy tajovuzlardan himoya qilishga majburligida namoyon bo'ladi. [3] X.T.Odilqoriyevning ta'kidlashicha, huquq jamiyat – inson – davlat o'rtasidagi munosabatlarni mustahkamlash va tartibga solishda adolat, insonni sevishtirish, shaxsni e'zozlash va uning sharafiga qadrlash, unga hayot kechirish uchun munosib shart-sharoitlar yaratib berish nuqtayi nazaridan kelib chiqadigan, qonunchilik hujjatlarida mustahkamlangan ijtimoiy tuzumning shaxs uchun qulay iqtisodiy shart-sharoitlar, imtiyozlar yaratishni nazarda tutadigan, shaxsni tahqirolovchi, qiynovchi, unga nisbatan noinsoniy munosabatlarni yoqlab chiquvchi qoidalar bo'lishi mumkin emasligida namoyon bo'ladi. [4] Huquqni muhofaza qiluvchi organlarning korrupsiyaga qarshi kurashish faoliyatida fuqarolar huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarining ustuvorligi prinsipi – O'zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi, O'zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmati, O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamentining korrupsiyaga qarshi kurashish faoliyatida korrupsiya bilan bog'liq fuqarolar huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarining himoya qilinishi va ustuvor ko'rilishidir. Ushbu prinsip ko'proq jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari sohasida namoyon bo'ladi. Xususan, O'zbekiston Respublikasining 2017-yil 3-yanvardagi "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi O'RQ-419-son Qonun 9-11-moddalariga asosan, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi, O'zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmati va O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi jismoniy va yuridik shaxslarning korrupsiya faktlariga doir murojaatlarini ko'rib chiqadi hamda ularning buzilgan huquqlarini tiklash va qonuniy manfaatlarini himoya qilish choralari ko'radi;

- ochiqlik va shaffoflik huquqni muhofaza qiluvchi organlarning korrupsiyaga qarshi kurashish tamoyillari doirasiga kirishi. Ushbu prinsipning mazmun-mohiyati davlat organlari o'z faoliyatlarini ochiq va oshkora hamda o'z faoliyatlari to'g'risida axborot taqdim etishda namoyon bo'ladi. Xususan, O'zbekiston Respublikasining 2014-yil 5-maydagi "Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatining ochiqligi to'g'risida"gi O'RQ-369-son Qonun 13-moddasiga binoan, amalga oshirilayotgan profilaktika tadbirlarining mohiyati va ahamiyatiga bag'ishlangan materiallar, qonuniylikning holati va jinoyatchilikning darajasi haqidagi ma'lumotlar, sodir etilgan huquqbuzarliklar hamda ularga chek qo'yish chora-tadbirlari haqidagi axborot davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining rasmiy veb-saytlarida joylashtirilishi mumkin. [5] Demak, huquqni muhofaza qiluvchi organlarning korrupsiyaga qarshi kurashish faoliyatida ochiqlik va shaffoflik prinsipi – O'zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi, O'zbekiston

Respublikasi Bosh prokuraturasi, O'zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmati, O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamentining korrupsiyaga oid amalga oshirilayotgan profilaktika tadbirlarining mohiyati va ahamiyatiga bag'ishlangan materiallar, korrupsiyaga oid qonuniylikning holati va korrupsiya bilan bog'liq jinoyatchilikning darajasi haqidagi ma'lumotlar, sodir etilgan korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar hamda ularga chek qo'yish chora-tadbirlari haqidagi axborotlarni yetkazib borishidir;

- tizimlilik prinsipi huquqni muhofaza qiluvchi organlarning korrupsiyaga qarshi kurashish tamoyillari doirasiga kirishi. Ushbu prinsipning mazmun-mohiyati davlat organlarining yaxlit bir tizim sifatida faoliyat ko'rsatishida namoyon bo'ladi. Masalan, O'zbekiston Respublikasining 2001-yil 29-avgustda qabul qilingan yangi tahrirdagi "Prokuratura to'g'risida"gi 257-II-son Qonun 10-moddasiga binoan, prokuratura tizimi 1) O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi; 2) Qoraqalpog'iston Respublikasi prokuraturasi; 3) viloyatlar va Toshkent shahar prokuraturalari; 4) tumanlar va shaharlar prokuraturalari; 5) viloyat prokuraturalariga tenglashtirilgan O'zbekiston Respublikasi Harbiy prokuraturasi, O'zbekiston Respublikasi Transport prokuraturasi; 6) tuman prokuraturalariga tenglashtirilgan, hududiy harbiy, transport va ixtisoslashtirilgan prokuraturalar; 7) O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzurida Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti va Majburiy ijro byurosi, shuningdek ularning joylardagi bo'linmalaridan iborat. Shu bilan birgalikda, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 30-iyundagi "O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-6013-son Farmoniga asosan, O'zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi faqatgina bir pog'onali davlat boshqaruv organi hisoblanadi hamda tizimi mavjud emas. [6] Demak, yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, huquqni muhofaza qiluvchi organlarning korrupsiyaga qarshi kurashish faoliyatida tizimlilik prinsipi – O'zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi, O'zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmati, O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti hamda ushbu organlarning yaxlit tizimiga kiradigan tarkibiy bo'linmalari tomonidan korrupsiyaga qarshi davlat siyosati, dasturlari, korrupsiyaga doir huquqbuzarliklarni bartaraf etishga doir tadbirlarni ishlab chiqish, axborot, korrupsiyaga oid huquqbuzarlik va uning ustidan davlat nazorati, huquq ijodkorligi, qonun ijodkorligi va huquqni qo'llashda korrupsiyaga qarshi kurashish, korrupsiya darajasini baholovchi indeks tuzish, korrupsiyaga qarshi standartni

qo'llash, korrupsiyaga qarshi hamkorlik, murojaatlarga oid korrupsiyaga qarshi kurashish va korrupsiyaga qarshi kurashishda huquqiy targ'ibot funksiyalarini amalga oshirish faoliyatidir;

- davlat va fuqarolik jamiyatining hamkorligi prinsipi. Ushbu prinsipning mazmun-bir tomonda davlat ikkinchi tomonda esa fuqarolik jamiyati institutlarining o'zaro hamkorligida namoyon bo'ladi. Xususan, O'zbekiston Respublikasining 2017-yil 3-yanvardagi "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi O'RQ-419-son Qonun 14-15-moddalariga asosan, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, nodavlat notijorat tashkilotlari, ommaviy axborot vositalari 1) korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi davlat dasturlarini va boshqa dasturlarni ishlab chiqish hamda amalga oshirishda ishtirok etishi; 2) aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirishda, jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirishda ishtirok etishi, ushbu tadbirlarni yoritishi; 3) korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risidagi qonunchilikning ijro etilishi ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirishi; 4) korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risidagi qonunchilikni takomillashtirish yuzasidan takliflar kiritishi; 5) korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida davlat organlari va boshqa tashkilotlar bilan hamkorlik qilishi; 6) qonunchilikka muvofiq boshqa tadbirlarda ham ishtirok etishi mumkin. Shuningdek, nodavlat notijorat tashkilotlar yuqoridagi tadbirlarni amalga oshirish maqsadida Milliy kengash va hududiy kengashlar faoliyatida, shuningdek davlat organlari huzuridagi ishchi guruhlar, komissiyalar va jamoat-maslahat organlari faoliyatida qonunchilikda belgilangan tartibda ishtirok etadi. [5] Demak, yuqoridagilardan kelib chiqqan aytish mumkinki, huquqni muhofaza qiluvchi organlarning korrupsiyaga qarshi kurashish faoliyatida davlat va fuqarolik jamiyatining hamkorligi prinsipi – O'zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi, O'zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmati, O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti hamda fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, nodavlat notijorat tashkilotlari, fuqarolar ommaviy axborot vositalari bilan korrupsiyaga qarshi davlat dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirishda ishtirok etish, huquqiy targ'ibot, jamoatchilik nazorati, huquq ijdokorligi sohalarida o'zlari bevosita yoki huquqni muhofaza qiluvchi organlar huzuridagi ishchi guruhlar, komissiyalar va jamoat-maslahat organlari faoliyatida ishtirok etish orqali hamkorlik qilish faoliyatidir;

- korrupsiyaning oldini olishga doir chora-tadbirlar ustuvorligi. Ushbu prinsipning mazmun-mohiyati davlat boshqaruvi, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish va tadbirkorlik, ma'muriy tartib-taomillar, davlat xaridlarini amalga oshirish sohalarida korrupsiyaning oldini olishga doir chora-tadbirlar, manfaatlar to'qnashuvining oldini olish va uni bartaraf etish va normativ-huquqiy hujjatlarning va ular loyihalarining korrupsiyaga qarshi ekspertizasida namoyon bo'ladi. Chunki,

O‘zbekiston Respublikasining 2017-yil 3-yanvardagi “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi O‘RQ-419-son Qonunda korrupsiyaning oldini olishga doir chora-tadbirlar sirasiga yuqoridagi chora-tadbirlar bevosita kirishi belgilab qo‘yilgan. Lekin eng e‘tiborli jihati ushbu chora-tadbirlar monitoringi qaysi davlat organi tomonidan amalga oshirilishi belgilanmagan.

Shu sababli, bizning fikrimizcha, O‘zbekiston Respublikasining 2017-yil 3-yanvardagi “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi O‘RQ-419-son Qonun 24¹-moddasi sifatida quyidagi huquqiy normani kiritish maqsadga muvofiq: *“Davlat boshqaruvi, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish va tadbirkorlik, ma‘muriy tartib-taomillar, davlat xaridlarini amalga oshirish sohalarida korrupsiyaning oldini olishga doir chora-tadbirlar, manfaatlar to‘qnashuvining oldini olish va uni bartaraf etish va normativ-huquqiy hujjatlarning va ular loyihalarining korrupsiyaga qarshi ekspertizasini o‘z ichiga oladigan korrupsiyani oldini olishga doir chora-tadbirlar monitoringi O‘zbekiston Respublikasining korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha milliy kengashi va uning hududiy kengashlari tomonidan amalga oshiriladi.”* Chunki, birinchidan, O‘zbekiston Respublikasining 2023-yil 8-avgustdagi “Normativ-huquqiy hujjatlarning va ular loyihalarining korrupsiyaga qarshi ekspertizasi to‘g‘risida”gi O‘RQ-860-son Qonun 13-moddasiga binoan, vakolatlarning noaniqligi vakolatlar, huquq va majburiyatlar bilan bog‘liq, shuningdek, ushbu Qonun 15-moddasiga asosan, davlat organlarining faoliyati ustidan nazorat qilish shakllari va turlarining mavjud emasligi nazorat-tekshirish faoliyati bilan bog‘liq bo‘lgan korrupsiyani keltirib chiqaruvchi omillar jumlasiga kiradi. Ikkinchidan, ayrim hollarda normativ-huquqiy hujjatning matnidan vazifa yoki topshiriq ijrosi uchun mas‘ul bo‘lgan davlat organini aniqlash imkoni bo‘lmaydi. Bu holat davlat organi tomonidan o‘zi manfaatdor bo‘lmagan ma‘lum bir harakat qilinaётganligini ko‘rsatish, amalda esa ushbu harakatni bajarilmaslik uchun qilinadi. Shu bilan birga, topshiriq ijrosi uchun mas‘ul etib bir necha tashkilotlar belgilanadi. Ushbu tashkilotlarning vakolat doirasi aniq belgilanmaganligi oqibatida ular topshiriqning bajarilishini bir-biriga yuklashiga olib kelishi mumkin. Natijada topshiriqning ijrosi yetarli darajada ta‘minlanmaydi. Uchinchidan, normativ-huquqiy hujjatda davlat organlari tomonidan muayyan harakatlarni amalga oshirish tartibi belgilangan bo‘lib, davlat organlarining faoliyatini nazorat qilish tartibi ko‘rsatilmagan bo‘lsa davlat organi ushbu faoliyatni hujjatda belgilangan tartibga rioya qilmasdan o‘z manfaatlari nuqtai nazardan amalga oshirishi mumkin.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, aytish mumkinki, huquqni muhofaza qiluvchi organlarning korrupsiyaga qarshi kurashish faoliyatida korrupsiyaning oldini olishga doir chora-tadbirlar ustuvorligi prinsipi – O‘zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi, O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi, O‘zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmati, O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi, O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi, O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi

kurashish departamenti o'z vakolatlari doirasida davlat boshqaruvi, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish va tadbirkorlik, ma'muriy tartib-taomillar, davlat xaridlarini amalga oshirish sohalarida korrupsiyaning oldini olishga doir chora-tadbirlar, manfaatlar to'qnashuvining oldini olish va uni bartaraf etish va normativ-huquqiy hujjatlarning va ular loyihalarining korrupsiyaga qarshi ekspertizasini amalga oshirish yoki ishtirok etish bilan bog'liq faoliyatidir;

- javobgarlikning muqarrarlighi. Ushbu prinsipning mazmun-mohiyati qilmishida huquqbuzarlik tarkibi aniqlangan har bir shaxs javobgarlikka tortilishi shart ekanligida namoyon bo'ladi. Xususan, O'zbekiston Respublikasining 2017-yil 3-yanvardagi "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi O'RQ-419-son Qonun 25-moddasida korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni o'z vaqtida aniqlash va ularga chek qo'yishga, korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni sodir etganlik uchun javobgarlikning muqarrarlighi prinsipini ta'minlashga doir chora-tadbirlar sirasiga 1) korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha faoliyatni bevosita amalga oshiruvchi davlat organlarining korrupsiyaning holatini va tendensiyalarini tizimli tahlil qilishga asoslangan samarali ishini tashkil etish, ularning faoliyatida korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarga yo'l qo'ymaslik; 2) korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarga qarshi kurashning zamonaviy shakllari va usullaridan foydalanish, huquqni muhofaza qiluvchi organlarning texnik ta'minoti darajasini oshirish, ularning ishiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish; 3) sudlarning mustaqilligi va erkinligini, ular faoliyatining ochiqqligini ta'minlash; 4) korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha faoliyatni bevosita amalga oshiruvchi davlat organlari o'rtasida muvofiqlashtirishni va hamkorlikni ta'minlash; 5) jismoniy va yuridik shaxslarning korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar faktlariga doir murojaatlari to'liq, xolisona va o'z vaqtida ko'rib chiqilishini ta'minlash; 6) korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar to'g'risida axborot bergan shaxslarning himoya qilinishini ta'minlash; 7) korrupsiyaga qarshi kurashning samarali jinoyat-huquqiy va jinoyat-protsessual mexanizmlarini yaratish kabilar kirishi belgilab qo'yilgan. [5] Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda aytish mumkinki, huquqni muhofaza qiluvchi organlarning korrupsiyaga qarshi kurashish faoliyatida javobgarlikning muqarrarlighi prinsipi – O'zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi, O'zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmati, O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti o'z vakolatlari doirasida korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni sodir etganlik uchun javobgarlikning muqarrarlighi prinsipini ta'minlashga doir chora-tadbirlarni amalga oshirish yoki ishtirok etish bilan bog'liq faoliyatidir.

Xulosa. Huquqni muhofaza qiluvchi organlarning korrupsiyaga qarshi kurashish tamoyillari quyidagilar hisoblanadi:

- qonuniylik;

- fuqarolar huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarining ustuvorligi;
- ochiqlik va shaffoflik;
- tizimlilik;
- davlat va fuqarolik jamiyatining hamkorligi;
- korrupsiyaning oldini olishga doir chora-tadbirlar ustuvorligi;
- javobgarlikning muqarrarliligi.

Shuningdek, yuqorida nazarda tutilgan huquqni muhofaza qiluvchi organlarning korrupsiyaga qarshi kurashish tamoyillarining mazmun-mohiyati hamda oʻziga xos jihatlaridan kelib chiqqan holda qonunchilik hujjatlariga quyidagi takliflarni ilgari surish maqsadga muvofiq:

• Oʻzbekiston Respublikasi Adliya vazirligi organlari va Oʻzbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi davlat boshqaruv organlari sirasiga kirganligi sababli *ushbu organlar faoliyatini tartibga soladigan maxsus qonun hujjatlarini ishlab chiqish;*

• Oʻzbekiston Respublikasining 2017-yil 3-yanvardagi “Korrupsiyaga qarshi kurashish toʻgʻrisida”gi OʻRQ-419-son Qonun 24¹-moddasi sifatida quyidagi huquqiy normani kiritish: *“Davlat boshqaruvi, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish va tadbirkorlik, maʼmuriy tartib-taomillar, davlat xaridlarini amalga oshirish sohalarida korrupsiyaning oldini olishga doir chora-tadbirlar, manfaatlar toʻqnashuvining oldini olish va uni bartaraf etish va normativ-huquqiy hujjatlarning va ular loyihalarining korrupsiyaga qarshi ekspertizasini oʻz ichiga oladigan korrupsiyani oldini olishga doir chora-tadbirlar monitoringi Oʻzbekiston Respublikasining korrupsiyaga qarshi kurashish boʻyicha milliy kengashi va uning hududiy kengashlari tomonidan amalga oshiriladi.”*

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROʻYXATI

1. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Korrupsiyaga qarshi kurashish milliy kengashi yigʻilishida nutqi, 2025-yil 5-mart, <https://president.uz/oz/lists/view/7924>
2. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining PF-11-son Farmoni bilan tasdiqlangan “2023 — 2026-yillarga moʻljallangan sud tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqishning qisqa muddatli strategiyasi, 2023-yil 16-yanvar, <https://lex.uz/docs/-6358976>
3. Z.M.Islomov. Davlat va huquq nazariyasi / Masʼul muharrirlar: H.Rahmonqulov, akademik, y.f.d., prof., – H.Boboyev, y.f.d., prof. – T.: Adolat, 2007, 478-bet.
4. Davlat va huquq nazariyasi. Darslik. X.T.Odilqoriyev – Toshkent: Yuridik adabiyotlar Publish, 2022-y. 171-bet.
5. Oʻzbekiston Respublikasining “Korrupsiyaga qarshi kurashish toʻgʻrisida”gi OʻRQ-419-son Qonun, 2017-yil 3-yanvar, <https://lex.uz/docs/-3088008>.
6. Oʻzbekiston Respublikasining “Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatining ochiqligi toʻgʻrisida”gi OʻRQ-369-son Qonun, 2014-yil 5-may, <https://lex.uz/docs/-2381133>.
7. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining “Oʻzbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish boʻyicha qoʻshimcha chora-tadbirlar toʻgʻrisida”gi PF-6013-son Farmoni, 2020-yil 30-iyun, <https://lex.uz/uz/docs/-4875784>.